

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB bank kartalaridan foydalangan holda to‘lov terminallari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish bo‘yicha

OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Ushbu Ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda - “Oferta”) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, yuridik shaxslarga/yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o‘rinlarda - “Savdo shoxobchasi”) bank plastik kartalaridan foydalangan holda savdo terminallari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish yuzasidan shartnoma tuzish bo‘yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo‘lib hisoblanadi.

Ommaviy oferta shartnomasi Mijoz tomonidan bank hisobvarag‘i ochish yuzasidan murojaat qilingan arizani taqdim etish bilan yoxud ushbu shartnomaga ilova qilingan arizani, belgilangan tartibda to‘liq to‘ldirilgan vaqtdan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi hamda mijoz mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to‘lovlarni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

1-bob. UMUMIY TAVSIFLAR

Ushbu shartnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

bank kartasi - Uni saqlovchisiga to‘lov infratuzilmalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag‘larini olish yoxud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to‘lov vositasidir;

bank kartasi saqlovchisi - emitent yoki bank kartalarini tarqatuvchi bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan bank kartasidan foydalanuvchi mijoz yoki mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxs;

terminali - bank kartasining saqlovchisiga to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha (qog‘oz yoki elektron shakldagi) sliplarni shakllantiruvchi moslama yoki dasturiy ta‘minot;

POS terminal - Tovar, xizmat va bajarilgan ishlar uchun naqd pulsiz shaklda bank kartasini saqlovchisiga karta hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lari hisobidan to‘lovlarni bajarilishi uchun BANK tomonidan Savdo shoxobchasiga ajratilgan to‘lov terminali;

to‘lov terminali inkassatsiyasi - Ma‘lum bir muddat oralig‘ida to‘lov terminalidan bajarilgan operatsiyalar (tranzaksiyalar) haqidagi elektron ma‘lumotni bankka uzatish va to‘lov terminali orqali Stop-listni yangilash;

savdo va xizmat ko‘rsatish sub‘ekti (keyingi o‘rinlarda “Savdo shoxobchasi”) - Ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat)larni sotuvchi yuridik shaxs va (yoki) yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs;

karta hisobvarag‘i - Bank kartasi orqali pul mablag‘larini tasarruf etish mumkin bo‘lgan bank hisobvarag‘i;

emitent - Bank kartasini emissiyasini amalga oshiruvchi, bank kartasining saqlovchilari va ekvayerlar tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatni zimmasiga olgan bank;

to‘lov terminali – bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat va boshqalar) sotuvchilari bilan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek, bank kartasi saqlovchisiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish;

ekvayer – Ekvayringni amalga oshiruvchi bank;

to‘lov terminali - Tovar (ish va xizmat)lar uchun to‘lovlarni bank kartasi orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar qilish imkoniyatini beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha sliplarni shakllantiruvchi yoki shakllantirilmaydigan POS qurilma. To‘lov terminallari Bank mulki hisoblanadi;

tranzaksiya - Bank kartasi saqlovchilari tomonidan xarid qilingan tovarlar, ish va xizmatlar uchun POS terminallari orqali amalga oshirilgan to‘lov;

slip - bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi, operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni va ushbu hujjatni shakllantirishda foydalanilgan bank kartasi, terminal yoki bankomatni to'g'ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o'zida mujassamlashtirgan qog'oz yoki elektron shakldagi hujjat (chek);

pin-kod - Bank kartasi saqlovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lib, u karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga bank kartasining saqlovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

bank tarifi –“O'z sanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, BANK tomonidan tovar, xizmat va bajarilgan ishlar bo'yicha naqd pulsiz shaklda to'lovlarni qabul qilish uchun foydalanishga berilgan to'lov terminallari va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha amaldagi Bank tarifiga ko'ra undiriladigan komission to'lovlar;

to'lovni kommunikatsion bekor qilinishi - Muvaffaqiyatli yoki xato bajarilgan to'lovlarni, avtomat tarzda bekor qilinishi;

bank kartasining blokirovkasi - Bank kartalarining amal qilishini to'xtatish yoki uni bekor qilish bo'yicha Bank tomonidan ko'rilgan chora.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnoma BANK hamda Savdo shoxobchasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi hududida POS to'lov terminallarini banklar tomonidan emissiya qilingan kartalari orqali tovar, xizmat va bajarilgan ishlar uchun naqd pulsiz to'lovlarni qabul qilish, o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun topshirish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. BANKning majburiyatlari:

3.1.1. Shartnoma belgilangan tartibda akseptlanganidan keyin, Savdo shoxobchasining ishonchli vakiliga ushbu shartnomaga ilova qilib, qabul qilish topshirish dalolatnomasiga asosan BANK MULKI hisoblanadigan to'lov terminallarini foydalanish uchun topshirish;

3.1.2. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiya summasini shu kunning o'zida, yoki keyingi bank ish kuni davomida, bekor qilingan to'lov summalarini chegirgan holda Savdo shoxobchasining depozit hisobvarag'iga kirim qilish;

3.1.3. Bankning yuridik/pochta manzili, rekviziti o'zgarganda, bu haqida Bankning rasmiy sayti (www.sqb.uz) orqali xabardor qilish;

3.1.4. Nosoz holatga kelgan POS terminalni ta'mirlanishi bo'yicha bajarilgan ishlar dalolatnomasini Savdo shoxobchasiga taqdim etish;

3.1.5. To'lov terminallaridan foydalanish yo'riqnomasi bilan Savdo shoxobchasi xodimlarini tanishtirish;

3.1.6. To'lovni kommunikatsion bekor qilinishida yuzaga kelgan xatoliklarni bartaraf qilinishi bo'yicha Savdo shoxobchasiga yordam ko'rsatish.

3.2. Savdo shoxobchasining majburiyatlari:

3.2.1. Bank karta saqlovchilari tomonidan taqdim qilingan Bank kartalarini to'lov vositasi sifatida tan olish hamda sotilgan tovar, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;

3.2.2. VISA, UZCARD va/yoki HUMO to'lov tizimlarining serverlariga bog'lanish hamda to'lov tizimida bajarilgan tranzaksiyalar bo'yicha inkassatsiyani amalga oshirish uchun aloqa tarmog'i (telefon, ajratilgan aloqa kanali va h.k.) bilan ta'minlash;

3.2.3. Shartnomaning 3.2.2-bandida belgilangan to'lov tizimi ishtirokchilarining bank kartalarini to'lov vositasi sifatida tovarlar (ish, xizmat) uchun cheklovlarsiz to'lovlarga qabul qilish;

3.2.4. VISA, UZCARD va/yoki HUMO to'lov tizimlarining hamda bankning ichki qoida va tartiblaridan kelib chiqib terminallar tarmog'i orqali bank kartalari saqlovchilariga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqilgan yo'riqnomalarga qat'iy rioya qilish;

3.2.5. Shartnoma shartlarida belgilangan tartibda to'lov terminallarining slip va elektron hisobotlarini shakllantirish va butligini ta'minlash;

3.2.6. Qalbakilashtirilgan bank kartalariga xizmat ko'rsatilishi xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Savdo shoxobchasi personallarini 5.2.3-bandda keltirilgan bank kartalariga xizmat ko'rsatilishiga tegishli bo'lgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish.

3.2.7. Bank kartalariga xizmat ko'rsatilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar yoki tartibi buzilganda, (xalqaro) to'lov tizimi tomonidan bildirilgan e'tirozga ("dispute/chargeback") ko'ra, bajarilgan tranzaksiya (komissiya) miqdorini to'liq qoplab berish;

3.2.8. To'lov terminallari yordamida bank kartasi vositasida amalga oshirilgan tranzaksiya bo'yicha ma'lumotlarni to'g'ri shakllanishi;

3.2.9. O'zining yuridik/pochta manzili, bank rekviziti, shuningdek, boshqa o'zgarishlar haqida zudlik bilan yozma ravishda Bankni xabardor qilish;

3.2.10. To'lov terminallaridan shartnoma shartlarida belgilangan maqsadlarda foydalanish;

3.2.11. Shartnoma bekor qilingan kundan so'ng 2 bank ish kuni davomida vaqtincha foydalanish uchun taqdim qilingan to'lov terminalni topshirish va qabul qilib olish dalolatnomasiga asosan ish holatida hamda qobig'iga hech qanday mexanik shikast yetkazilmagan holda to'liq to'plamda topshirish.

3.2.12. Foydalanish uchun topshirilgan to'lov terminalida biror-bir nuqsonlar, qobig'ining deformatsiyalanishi yoki to'plamlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Bank tarifida belgilangan miqdorida, 5 bank ish kuni davomida jarimani to'lab berish majburiyatini oladi.

3.2.13. Vaqtincha foydalanish uchun taqdim qilingan to'lov terminallarini doimo ishchi xolatida bo'lishini ta'minlash;

3.2.14. To'lov terminali ishdan chiqqan holatlarda, bu haqida Bankni zudlik bilan yozma ravishda habardor qilish;

3.2.15. Ishdan chiqqan POS terminalni Bankning yozma rozilgisiz mustaqil tarzda ta'mirlamaslik;

3.2.16. Foydalanish uchun topshirilgan to'lov terminallari ta'mirlab bo'lmaydigan holatga kelgan, o'g'irlanganda, yo'qotilganda, Bank bilan topshirish va qabul qilib olish dalolatnomasi tuzilgan davrda aks ettirilgan qiymatini, 5 bank ish kuni davomida taqdim qilingan nuqsonlik dalolatnomasiga ko'ra to'liq miqdorda qoplab berish;

3.2.17. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan to'lov tranzaksiyalar hisobidan hamda POS terminali virtual terminallaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etganlik uchun Bankning amaldagi Bank tarifida belgilangan miqdorda bank komissiyasini to'lash;

3.2.18. "dispute/chargeback" (bahsli) tranzaksiyaga oid barcha asos hujjatlarni bankning yozma yoki og'zaki ogohlantirishidan keyin 5 bank ish kuni ichida taqdim etish;

3.2.19. Foydalanish uchun olingan to'lov terminallari uchun to'lovlarni Bank ta'rifiga asosan amalga oshirish.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan to'lov tranzaksiyalar hisobidan Bank Tariflarida belgilangan miqdorida bank komissiyasi undirish;

4.1.2. Savdo va pullik xizmat ko'rsatish shoxobchalari bankning POS terminalidan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etganlik, shu jumladan, foydalanish uchun olingan to'lov terminallari uchun bank tarifiga ko'ra bank komissiyasi olish;

4.1.3 Shartnoma shartlari buzilganda, savdo shoxobchasiga nisbatan jarima sanksiyalarini qo'llash;

4.1.4. Savdo shoxobchalariga o'rnatilgan terminallardan kam miqdorda yoki umuman tranzaksiyalar bajarilmagan holatlarda, bank komissiyasi to'liq undirilgan holda o'rnatilgan tartibda shartnomani bekor qiladi.

4.1.5. Savdo shoxobchasi tomonidan Shartnoma yoki Yo'riqnoma shartlari buzilganda yuzaga keladigan barcha xarajatlarni shak-shubhasiz undirish.

4.1.6. Mazkur shartnomaning 3.2.7., 3.2.18., 4.1.1., 4.1.2. va 4.1.3-bandlarida qayd etilgan komissiya va jarima mablagʻlari Bank tomonidan toʻlov talabnomasiga yoki memorial orderga asosan mijozning barcha banklardagi barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda undirib olish.

4.1.7. Mijoz Oʻzbekiston Respublikasi hududida taqiqlanga (totalizator, kripto va boshqalar) bilan yoki 2886 ga asosan yoki frod bilan bogʻliq operatsiyalar amalga oshirilganda mijozga xizmat koʻrsatish shartnomasini bir tomonlama bekor qilishga haqli.

4.2. Savdo shoxobchasining huquqlari:

4.2.1. Bank kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hisobidan depozit hisobvaraglariga kirim qilingan mablagʻlar bilan tovar va xizmatlar xajmi oʻrtasidagi tafovut boʻyicha Bankdan maʼlumotlarni olish;

4.2.2. Savdo shoxobchasining xodimlariga qoʻshimcha instruktaj oʻtkazilishini talab qilish.

4.2.3. Bank kartalariga uzluksiz xizmat koʻrsatilishini taʼminlash maqsadida, qoʻshimcha savdo terminallari oʻrnatilishi boʻyicha murojaat qilish.

5. HISOB-KITOBLARNI BAJARISH SHARTLARI

5.1. Bank tomonidan mazkur shartnomaga asosan koʻrsatilgan xizmatlar uchun, xizmat koʻrsatilgan vaqtda amalda boʻlgan Tariflarida belgilangan miqdorda va tartibda Bank komissiyasi olinadi.

5.2. Mazkur shartnoma boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlar uchun komissiya Fuqarolik kodeksining 780 va 783-moddalariga asosan, Bank tomonidan memorial order yoki toʻlov talabnomasi orqali Mijozning roziligi (akseptsiz) tartibda undirib olinadi. Mijozning hisobvaragʻida mablagʻ yetarli boʻlmagan holatda memorial order yoki toʻlov talabnomasi 2-sonli Kartotekaga kirim qilinadi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar shartnoma shartlari bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar boʻladi.

6.2. Savdo shoxobchasining aybi bilan nosoz holatga kelgan POS toʻlov terminalini toʻliq taʼmirlashga ketgan xarajat yoki umuman taʼmirlab boʻlmaydigan terminalning balansdagi qiymati savdo shoxobchasi tomonidan qoplanadi.

6.3. Bank tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.2.-bandida qayd etilgan majburiyat unda belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, Bank har bir kechiktirilgan toʻlov summasining 0,1 % miqdorida penya toʻlaydi. Bunda penyaning umumiy qiymati kirim summasining 20 % dan oshmasligi kerak.

6.4. Mazkur shartnoma 4.1.1., 4.1.2. va 4.1.3. bandlarida qayd etilgan toʻlovlar Savdo Shoxobchasi tomonidan oʻz vaqtida amalga oshirilmasa, kechiktirilgan toʻlovning har bir kun uchun 0,1 % miqdorida penya toʻlaydi. Bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan toʻlovning 20 % dan oshmasligi kerak.

7-bob. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

7.1. Taraflar ushbu shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri oʻz faoliyatida korrupsion xarakatlarni toʻliq taʼqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablagʻlari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni taʼminlash, maʼmuriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni taʼminlashni toʻliq rad etadi. Tomonlar oʻz faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud boʻlsa) talablariga amal qiladilar.

7.2. Taraflar ushbu shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarish chogʻida na oʻzlari, na ijro oʻrgani, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion toʻlovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita) har qanday korrupsion toʻlovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi boʻlmasliklarini kafolatlaydi.

7.3. Mazkur boʻlimning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir boʻlgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada

ushbu bo‘limning qaysi bir qoidalarini buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish – “Komplaens ishonch liniyasi” kanallari (tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz, Telegram messenger SQB AntiKor (@sqbantikor_bot) orqali amalga oshiriladi.

7.4. Ushbu bo‘lim qoidalarini taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma‘lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraf lama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

7.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

7.6. Taraflar shartnoma bekor qilishdan 5 (besh) bank ish kuni oldin ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart. Mijoz barcha majburiyatlarini bajargan va shartnoma bo‘yicha bank oldida qarzdorligi mavjud bo‘lmasa, shartnoma ushbu muddatdan oldin bekor qilinishi yoki to‘xtatilishi mumkin.

8. SANKSIYALAR BILAN BOG‘LIQ XATARLARNI BOSHQARISH BO‘YICHA SHARTLAR

8.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda tomonlar ularning har biri o‘z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va ularni qo‘llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

8.2. Mijozning hisob varag‘iga kelib tushgan mablag‘larni kiritish yoki mijoz topshirig‘iga asosan hisobvarag‘idan o‘tkazishda Bank tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar to‘g‘risidagi xalqaro qonun hujjatlariga rioya etilishiga qaratilgan tegishli choralar ko‘rish (tekshirish va o‘rganish) talab etilsa, Bank mazkur amaliyotni zarur bo‘lgan davrga to‘xtatib qo‘yishga haqli.

8.3. Bank - mijoz va uning kontragenti bilan tuzilgan bitim bo‘yicha har qanday ma‘lumot yoki hujjatlarni (kontragent to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, uning to‘liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro‘yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro o‘rgani, mansabdor shaxslari, xodimlari, yuk to‘g‘risida, jo‘natish hujjatlari, mahsulotning spesifikatsiyasi, tashuvchi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va boshqa zarur ma‘lumotlar) ushbu bitimning iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli;

8.4. Eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag‘larni mijoz hisobvarag‘iga kirim qilinishi, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag‘larini chiqim qilishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlariga, eksport/import qilinayotgan tovarlar/xizmatlarga nisbatan sanksiyalar mavjudligi aniqlanganda, Bank ushbu operatsiyani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishga haqli.

8.5. Agar mijoz tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo shartnomalarida rejalashtirilgan amaliyotlarning sanksiyaviy xatari Bank tomonidan yuqori deb topilsa, Bank ushbu amaliyotni amalga oshirayotgan mijozdan xalqaro e‘tirof etilgan va reytingga ega bo‘lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy xulosa talab qilishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun amaliyotni bajarish uchun majburiy hisoblanmaydi. Bank mazkur amaliyotni o‘tkazishda mustaqil hisoblanadi. Mijoz tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan harajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

8.6. Mijoz faoliyati sanksiya bo‘yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo‘lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Mijozni qoidalar buzilganligini tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani quyidagi pochta manziliga yuboradi:

Bank: _____

Mijoz: _____

8.7. Mijoz ushbu shartlarning 1.6-bandiga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarini buzilganlik faktlarini/materiallarini rad etuvchi asoslari mavjud bo‘lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqli.

8.8. Mijoz o‘z faoliyatini amalga oshirishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

8.9. Mijoz eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag'lar bo'yicha tovar va xizmatlarga, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag'larini jo'natishda tovar va xizmatlar sanksiyaga tushgan tovarlar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

9. FORS-MAJOR

9.1. Shartnoma amalda bo'lgan davrda, bir tomon ikkinchi tomon oldida ularning ixtiyoriy va xohishidan tashqari, oldindan ko'rib bo'lmaydigan va oldini olib bo'lmaydigan, jumladan, suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar natijasida kelib chiqqan vaziyatlarda mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

9.2. Fors-major vaziyatlari boshlanishi va yakunlanishi bo'yicha ikkala tomon zudlik bilan bir-birini habardor qiladi. Fors-major vaziyatlarini xabardor qilgan tomon, vakolatli davlat organlaridan tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish majburiyatini oladi.

10. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha yuzaga keladigan nizo va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

10.2. Agarda ko'rsatib o'tilgan nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

10.3. Taraflar dalil sifatida baxs yoki kelishmovchiliklarni hal qilishda amalga oshirilgan operatsiyalarni o'zida saqlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarga tayanadi.

10.4. Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo'yib qabul qilib olganligi yoki manziliga pochta orqali yuborilganligi to'g'risida pochta kvitansiyasi mavjud bo'lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingan deb hisoblanadi.

11. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

11.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va bekor qilinmaguniga qadar amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnoma Savdo shoxobchasining tashabbusi bilan, uning yozma ravishdagi murojaatiga asosan foydalanish uchun topshirilgan to'lov terminallari (Bank mulki) va boshqa jihozlar soz xolatda Bankka qaytarilgan vaqtdan boshlab bekor qilingan hisoblanadi. Bunda shartnoma bekor qilish kuniga Savdo shoxobchasi tomonidan Bank tariflarida belgilangan komissiyalar to'liq to'langan bo'lishi lozim.

11.3. Shartnoma savdo shoxobchalariga o'rnatilgan terminallardan kam miqdorda yoki umuman tranzaksiyalar bajarilmagan holatlarda, shuningdek, Savdo shoxobchasi tomonidan ushbu shartnoma shartlariga rioya qilinmaganlik holatlari aniqlanganda, Bank tomonidan bank komissiyasi to'liq undirilgan holda o'rnatilgan tartibda bekor qilinishi mumkin.

11.4. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganidan so'ng, mijozga ajratilgan to'lov terminalga mablag'lar tushumi sodir bo'lgan taqdirda, taraflar o'rtasida solishtirma dalolatnoma tuziladi, ushbu solishtirma dalolatnomaga asosan bank pul mablag'lari qoldig'ini mijozning O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi istalgan tijorat bankida ochilgan talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi depozit hisobvarag'iga ko'chirib beradi.

11.5. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida bank tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari mijozga qaytarilmaydi.

11.6. Yakunlangan operatsiyalar bo'yicha bank kartasi saqlovchisi tomonidan yoki mijoz tomonidan ba'zi bir sabalariga ko'ra, pul mablag'lari karta saqlovchisining bank kartasiga qaytarilgan holatlarda, undirilgan bank daromadi mijoz yoki karta saqlovchisiga qaytarib berilmaydi.

11.7. Bank to'lov terminali foydalanuvchisi tomonidan xato bajarilgan amaliyotlarga bank javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi hamda bajarilgan amaliyotlar uchun bank avtomat tarzda undirilgan daromadlarini qaytarmaydi.

11.8. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan, u bilan bog'liq barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Bank

Mijoz

Manzil:

Manzil:

STIR:

Telefon:

(BXM/BXO rahbari, F.I.Sh., imzo)

(Katta nazoratchi, F.I.Sh., imzo)

(Huquqshunos-maslahatchi, F.I.Sh., imzo)

(F.I.Sh., imzosi)

M.O'.

«__» _____ 202__ yil.

«__» _____ 202__ yil.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI